

ZAMONAVIY TA'LIMDA LEITNER TIZIMIDAN FOYDALANISH METODIKASI

S.T. Usmonova

Navoiy davlat universiteti o'qituvchisi

Axunova G.

Navoiy davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash va uzoq muddatli xotirada saqlashni ta'minlash maqsadida Leitner metodidan foydalanish metodikasi yoritilgan. Ushbu usul o'quv materiallarini kartochkalar yordamida bosqichma-bosqich takrorlash asosida tashkil etiladi. Maqolada metodning afzalliklari, ta'lim jarayoniga joriy etish bosqichlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy ta'lim, Leitner tizimi, metod, o'qituvchi, o'quvchi, interval, innovatsion pedagogik texnologiya

Аннотация. В данной статье освещается методика использования метода Лейтнера в современном образовательном процессе с целью укрепления знаний учащихся и обеспечения их долгосрочного сохранения в памяти. Данный метод основан на поэтапном повторении учебного материала с использованием карточек. В статье также представлены преимущества метода и этапы его внедрения в образовательный процесс.

Ключевые слова: современное образование, система Лейтнера, метод, учитель, ученик, интервал, инновационные педагогические технологии.

Abstract. This article describes the methodology of using the Leitner method in the modern educational process in order to strengthen students' knowledge and ensure its long-term retention in memory. This method is based on the step-by-step repetition of learning materials using flashcards. The article also presents the advantages of the method and the stages of its implementation in the educational process.

Keywords: modern education, Leitner system, method, teacher, student, interval, innovative pedagogical technologies.

KIRISH

Bizga ma'lumki, bugungi kunda dars mashg'ulotlarini sifatli va samarali tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim mazmuniga oid o'rganilayotgan tushunchalarni, murakkablik darajalari turlicha bo'lgan mavzularni, fanlararo amalga oshirilayotgan aloqadorlik va o'zaro bog'liqlik o'rnatishni, tahlil qilish, solishtirish va

taqqoslash, topshiriqli muammolarni aniqlash, ularni hal etish va berilgan amaliy topshiriqlarni rejalashtirish, tafakkur qilish va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.


Leitner tizimi 1970-yillarda nemis fan jurnalisti Sebastian Leitner tomonidan taklif qilingan fleshkartalarga samarali foydalanishning keng tarqalgan usuli hisoblanadi. Bu interval takrorlash prinsipining oddiy amalga oshirilishi sanaladi va bu yerda kartalar bir necha guruhga saralanib boriladi. Inglizcha “Leitner system” so‘zidan olingan bo‘lib, o‘tilgan mavzuga tegishli so‘zlarni samarali yodlash va takrorlash uchun keng qo‘llaniladigan usul hisoblanadi. Jurnalist Sebastian Leitner inson idrokini va xotirasini kuzatdi. Uning kashfiyotlaridan biri shundaki, unutilganda, odam bir yoki ikki kundan keyin (48 soat) o‘rganilgan barcha ma‘lumotlarning 75 foizini yo‘qotadi. Chet el so‘zlari bilan darsdan keyin 20 daqiqa ichida 42% unutiladi va 8 kundan keyin dastlabki ma‘lumotlarning atigi 20 foizi xotirada qoladi, ammo bu kichik foiz odamga barcha ma‘lumotlarni umuman unutmaslikka imkon beradi va o‘chirilgan bilimlarning kaliti hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

“Leitner tizimi” metodi

- zerikarli darsning oldini oladi
- o‘quvchilar e‘tiborini darsga qaratishga yordam beradi
- murakkab mavzularni oson o‘zlashtirishga yordam beradi
- fanga yoki mavzuga tegishli atamalarni tezda yodlashga yordam beradi
- tezkorlik bilan savollarga javob berish ko‘nikmalari shakllanishiga yordam beradi

Leitner tizimining asosiy printsiplari “interval o‘qish” printsipligiga asoslanadi, ya‘ni materialni bir necha marta qayta ko‘rib chiqish va har safar takrorlash oralig‘ini orttirish hisoblanadi.



O‘quvchilar bilan birgalikda qiyin mavzuga doir savolli kartochkalar tayyorlanadi. Masalan, 5 ta qutiga 5 tadan jami 25 ta savollar, so‘zlar, faktlar, yoki formulalar jamlanmasi tayyorlanadi, bunda o‘quvchilarning o‘zlari ham savol tayyorlash jarayonida ishtirok etishlari yanada zavq beradi. Har bir kartochka ma‘lum bir kattaintervalga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, mavzuni xotiralarida yaxshi saqlab qolishga yordam beradi. O‘quvchilar navbat ma-navbat qutildan savollarni oladilar. Birinchi qutidagi beshala savolga ham javob berishsa, ikkinchi qutiga o‘tishlari mumkin. Birinchi qutidagi savollarga to‘liq javob berisholmasa, to‘g‘ri va to‘liq javob berguncha o‘sha joylarida qolishadi. Agar ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi,

beshinch qutidagi savollarga to'g'ri va to'liq javob berisholmasa bitta quti ortga qaytishadi. Shartni to'liq-to'g'ri bajargan ishtirokchilar g'olib bo'ladilar. Leytner tizimiga ko'ra, o'rganilgan ma'lumotlarga ega kartalar oldinga, uzoqroq takrorlash intervallari bo'lgan qutilarga o'tkaziladi, o'zlashtirilmagan ma'lumotlarga ega kartalar esa birinchi qutiga qaytariladi. Masalan, bu usulning afzalligi shundaki, o'quvchi diqqatini birinchi guruhda qoladigan eng qiyin fleshkardlarga(kartochkalarga) qaratishi mumkin. Natijada, o'rganilishi zarur bo'lgan narsalar deyarli mukammal holda va qisqa vaqtda o'rganiladi. Quyida Leitner metodini qo'llash bosqichlari jadval asosida keltirib o'tamiz:

1-jadval

Bosqich	Amalga oshiriladigan ish	Natija
1-bosqich	O'quv material kartochkalarga yoziladi	O'quvchi material bilan tanishadi
2-bosqich	Kartochkalar savol-javob orqali tekshiriladi	Bilim darajasi aniqlanadi
3-bosqich	To'g'ri javob berilgan kartochkalar keying qutiga o'tadi	Takrorlash oralig'i ortadi
4-bosqich	Noto'g'ri javoblar birinchi qutiga qaytadi	Qiyin mavzular ko'proq takrorlanadi
5-bosqich	Barcha kartochkalar oxirgi qutiga yetadi	Mavzu to'liq o'zlashtiriladi

Leitner tizimi afzalliklari

-tizimli takrorlash: takrorlashlar intervalga qarab tartiblangan, bu esa yodlash jarayonini samarali.

-kamroq vaqt sarflash: kamroq vaqt ichida ko'proq materialni yodlash imkonini beradi.

-uzoq muddatli yodlash: yodlangan material uzoq muddat xotirangizda saqlanadi.

TADQIQOT NATIJALARI VA XULOSA

Leitner tizimi metodini bir necha mavzularni takrorlash yoki yangi mavzuni mustahkamlash uchun qo'llash mumkin. Bunda o'quvchilar savollarni o'qish natijasida mavzularni esga oladi va kerakli javoblarni yo'llaydi. Demak, bu metod o'quvchilardan ziyraklikni, xotira mustahkamligini, tezkorlikni, javoblar aniq manbaga asoslanganligini talab etadi. Bu o'yin qiyin mavzuni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi. Qolaversa, o'quvchida mas'uliyat hissini oshiradi. O'zi uchun o'zi harakat qilib, marraga yetishni o'rgatadi. Eng asosiysi, ajoyib atmosfera hosil qiladi. **Leitner tizimi** ko'plab onlayn dasturlar va ilovalarda qo'llaniladi ya'ni, Anki, Quizlet kabilar shu tizim asosida ishlaydi,

foydalanuvchilarga o‘quv kartochkalarni yaratish va ularni tizimli ravishda ko‘rib chiqishga bu esa o‘z navbatida istalgan joyda bilimni takrorlash imonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ishmuxammedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida o‘qitish samaradorligini oshirish yo‘llari.-T,2003.
2. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari-Toshkent,2001.
3. Xolmurodova M. U. Fanlarni o‘qitishda qiziqarli va samarali uslublardan foydalanish metodikasi- Qarshi ,2024.
4. Reddy, S., Labutov, I., Banerjee, S., Joachims, T. Unbounded Human Learning: Optimal Scheduling for Spaced Repetition. – 2016
5. Settles, B., Meeder, B. A Trainable Spaced Repetition Model for Language Learning. – Proceedings of the ACL Conference, 2016